Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.512.133
FILOLOGIYA

O'ZBEK TILIDAGI DUO JANRINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (J.SEARLE TAKSONOMIYASI ASOSIDA)

Nilufar Ilxamovna Qurbanbayeva*
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
✉ nilukhan1720@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o'zbek tilidagi duo janri alqov makrotizimining (olqish-duo-tilak) tarkibiy qismi sifatida pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. J.Searle illokutiv taksonomiyasi asosida duoning gibrid nutqiy akt tabiati - ekspressiv va direktiv kuchlarning qo'shilishi, ikki bosqichli adresat tuzilmasi (Yaratgan - superadresat, tinglovchi - benefitsiar) hamda illokutiv kuch ko'rsatkichlari (IFID) ochib beriladi.

Kalit so'zlar

duo, alqov makrotizimi, nutqiy akt, illokutiv taksonomiya, ekspressiv, direktiv, superadresat, IFID, pragmatika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743376

KIRISH

O'zbek lingvomadaniyatida alqov makrotizimi olqish, duo va tilak janrlarini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida qaraladi [7]. Ushbu triadada duo alohida o'rin tutadi: u olqishning ritual-folklor tabiatidan ham, tilakning dunyoviy xarakteridan ham farqli ravishda, sakral mazmunga ega bo'lib, ezgu niyat Yaratganga murojaat orqali ifodalanadi. Duo janrining pragmatik mexanizmi hozirga qadar nutqiy aktlar nazariyasi nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilmagan bo'lib, mavjud ishlar asosan folklorshunoslik va janr tavsifi doirasida qolgan [5].

J.Ostin nutqni harakat sifatida talqin etuvchi konsepsiyasi [1] va uni rivojlantirgan J.Searle illokutiv taksonomiyasi [2; B.10-16.] duo tahlili uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Searle nutqiy aktlarni beshta sinfga - reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlarga ajratadi. Duoni ushbu taksonomiyaga joylashtirish uning gibrid tabiatini namoyon etadi: bir tomondan, duo so'zlovchining tinglovchiga nisbatan ezgu munosabatini ifodalovchi *ekspressiv* akt; ikkinchi tomondan, u Yaratganga qaratilgan iltijo - ya'ni o'ziga xos *direktiv* (so'rov) aktidir. Shu bois duoni sof ekspressiv deb belgilash uning illokutiv strukturasini to'liq qamrab olmaydi.

ASOSIY QISM

Duoning eng muhim pragmatik xususiyati bu ikki bosqichli adresat tuzilmasidir. Aksariyat nutqiy aktlarda adresat bitta bo'lsa, duoda kommunikativ vaziyat uch a'zoli: so'zlovchi (duogo'y), superadresat (Yaratgan) va benefitsiar (duo yo'llangan shaxs). Masalan, "Ilohim, umringga baraka bersin" jumlasida grammatik murojaat tinglovchiga qaratilgan bo'lsa-da, istalgan holatning amalga oshuvchisi sifatida Yaratgan nazarda tutiladi. Bu tuzilma duoni tilakdan farqlovchi asosiy mezon hisoblanadi: tilakda ("Yo'ling ochiq bo'lsin") sakral instansiya ya'ni Yaratgan (Alloh, Xudo) yoki umuman ilohiy kuch eksplitsit (ochiq) ishtirok etmaydi.

Duo aktining illokutiv kuch ko'rsatkichlari (IFID) sifatida quyidagilar ajratiladi: 1) sakral vokativlar - Ilohim, Iloyo, Xudoyim, yo Rabbim; 2) -sin qo'shimchali istak mayli shakllari - bersin, asrasin, yorlaqasin; 3) sakral leksik kodlar - baraka, rizq, panoh, oq fotiha [7]. Ushbu ko'rsatkichlar duoning konvensional tabiatini ta'minlaydi: A.Wierzbicka ta'kidlaganidek, ezgu istak bildiruvchi aktlar semantikasi madaniy stsenariylar bilan

chambarchas bog‘liq [3].

Searle muvaffaqiyat shartlari (felicity conditions) nuqtai nazaridan duoning samimiylik sharti so‘zlovchining benefitsiarga chin dildan yaxshilik istashi bo‘lsa, tayyorgarlik sharti so‘zlovchining istalgan holatni o‘z kuchi bilan amalga oshira olmasligi va uni yuqori instansiyaga havola qilishidir. Ayni shu jihat duoni va’da (komissiv) va buyruq (direktiv)dan ajratib turadi. Perlokutiv jihatdan duo tinglovchida minnatdorlik, taskin va himoyalanganlik hissini uyg‘otadi hamda P.Braun va S.Levinson nazariyasi doirasida ijobiy yuz strategiyasining yorqin namunasi sifatida talqin etiladi [4; B.101-129.].

Pragmatik pozitsiyasiga ko‘ra duolar ikki guruhga ajratiladi:

A) *Initsiativ duolar* so‘zlovchi tashabbusi bilan marosimiy vaziyatlarda - nikoh to‘yi, safar oldi, dasturxon atrofidagi yig‘in kabi holatlarda aytiladi.
B) *Reaktiv duolar* esa muayyan nutqiy aktga - minnatdorlik, xayrlashuv, iltimosning bajarilishiga javoban yuzaga keladi.

Initsiativ duolarda ritual komponent kuchli namoyon bo‘ladi: fotiha duosi qo‘l ochish jesti va “omin” yakunlovchi formulasi bilan birga keladi. “Omin” alohida pragmatik maqomga ega birlik bo‘lib, u ishtirokchilarning duoga qo‘shilishini ifodalovchi kollektiv performativ vositadir: ushbu formula duo aktini yakunlaydi hamda individual aktni jamoaviy aktga aylantiradi. Bu jihat duoning boshqa nutqiy aktlardan yana bir farqini ko‘rsatadi - duo ko‘p hollarda yakka so‘zlovchi akti emas, balki nutqiy hamjamiyat tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan polifonik aktdir.

Duo aktining illokutiv kuchi turli vositalar orqali graduallashadi: leksik takror va sinonimik zanjirlar (“Ilohim, baxtingni bersin, umringni uzoq qilsin, rizqingni butun qilsin”), sakral vokativning takrorlanishi hamda sakral kodlarning bir aktda to‘planishi duoning ta’sir kuchini kumulyativ tarzda oshiradi. Bunday kengaytirilgan tuzilma duoning marosimiy registriga xos bo‘lsa, kundalik muloqotda qisqa, konvensiallashgan duolar (“Baraka toping”, “Xudo yorlaqasin”) ustuvorlik qiladi. Demak, duo janri ichida marosimiy to‘liq shakl va kundalik qisqargan shakl o‘rtasida pragmatik gradatsiya mavjud bo‘lib, bu duoning turli muloqot registrlariga moslashuvchanligini namoyon etadi.

Qiyosiy jihatdan ingliz lingvomadaniyatida duoga funksional yaqin birliklar sifatida *God bless you*, *May God protect you*, *God be with you* kabi formulalar ajratiladi. Biroq ularning aksariyati sekulyarlashuv jarayonida sakral semantikasini xiralashtirgan: masalan, *bless you* formulasi konvensiallashib, illokutiv kuchi zaiflashgan etiket reaksiyasiga aylangan. Shu bois o‘zbek duolarining inglizcha muqobillari ko‘p hollarda qisman yoki nol ekvivalentlik darajasida namoyon bo‘ladi; superadresat instansiyasining eksplitsit ifodalanishi va IFID tizimining boyligi esa o‘zbek duo janrining tipologik farqlovchi belgisi bo‘lib qoladi. Ushbu asimmetriya alqov makrotizimini qiyosiy tadqiq etishda duo janriga alohida e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi [6] asosida shakllantirilgan korpus bo‘yicha dastlabki kuzatishlar duoning muloqotdagi ikki asosiy pragmatik pozitsiyasini ko‘rsatadi: duo birliklarining salmoqli qismi minnatdorlik javobi sifatida (“Rahmat, iloyo baraka toping”) va xayrlashuv formulasi sifatida qo‘llansa, bir qismi mustaqil marosim akti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu duoning o‘zbek muloqot madaniyatida javob akti (reaktiv) va tashabbus akti (initsiativ) sifatida ikki xil pragmatik pozitsiyada faollashuvini tasdiqlaydi.

XULOSA

Duo o‘zbek lingvomadaniyatida ekspressiv-direktiv gibrid nutqiy akt bo‘lib, uning pragmatik o‘ziga xosligi superadresat instansiyasi, konvensional IFID tizimi va sakral madaniy kodlar bilan belgilanadi. Duo janrini Searle taksonomiyasi asosida tahlil etish alqov makrotizimining ichki differensiatsiyasini nazariy asoslash imkonini beradi va o‘zbek-ingliz qiyosiy pragmatikasi uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. - Oxford: Clarendon Press, 1962. -166 p.
2. Searle J.R. A classification of illocutionary acts // Language in Society. - 1976. - Vol. 5, №1. - P. 1-23.

3. Wierzbicka A. English Speech Act Verbs: A Semantic Dictionary. - Sydney: Academic Press, 1987. - 397 p.

4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. -Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 345 p.

5. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. - Toshkent, 2017.

6. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: qissa. - Toshkent: Sharq, 2005.

7. Qurbanbayeva N. Duo, istak va tilaklarning kontextual qo‘llanilishi va diskursiv xususiyatlari// Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: III an’anaviy anjuman materiallari. - [Buxoro-2025]. - B.311-313.

8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 300 б.